



XALQ DEPUTATLARI RISHTON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 31-yanvar

VII-4-5-11-158-K/25

Rishton tumani

Tumandagi ayrim Mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida joylashgan qabristonlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish, shuningdek, nomini davlat reyestriga kiritish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yildagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minalash, shuningdek, geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi 2024-yil 3-oktyabr kungi **03/08-9506**-sonli “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasi asos uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi ayrim MFY hududlarida joylashgan qabristonlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish, shuningdek, tumandagi qabristonlar nomini davlat reyestriga kiritish bo‘yicha “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasi” kiritgan takliflari qabul qilinsin.

3. Tumanda nomi o‘zgartirilgan qabristonlar nomlari ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlash uchun qabul qilinsin.

4. Tuman Statistika bo‘limi (O‘.Teshaboyev), Kadastr agentligi Farg‘ona viloyat boshqarmasi, Rishton tuman bo‘limi (B.Dadajonov), Tuman Qurilish bo‘limi (Q.Mavlonov) hamda tegishli mutasaddi davlat tashkilotlari amaldagi tartibda nom berilgan MFY hududida joylashgan qabristonlar nomlarini davlat ro‘yxatidan

o‘tkazish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

5. Mahalla fuqarolar yig‘ini raislariga Yo‘l qurilish bo‘limi va Obodonlashtirish boshqarmasi bilan hamkorlikda hududlardagi nom berilgan hamda nomlari o‘zgartirilgan qabristonlar bo‘yicha berilgan takliflar Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng ularning nomlari qayd etilgan metall ko‘rsatgichlar o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

6. Mazkur qaror Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng tuman “Rishton haqiqati” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini ta’minalash tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minalash masalalari bo‘yicha maslahatchisi A.Xaydarov hamda tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (S.Xaydarov)lar zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



XOLIKOV BAXODIR
RAXMATULLAYEVICH

Xalq deputatlari Rishton tumani
 Kengashining
 2025-yil 31-yanvardagi
 VII-4-5-11-158-K/25 -son qaroriga
 1-ilova

Geografikobyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlari talablariga muvofiq o‘zbektilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirilib, davlat reyestr bazasiga kiritilayotgan tumandagi geografik obyekt nomlari

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Qabriston	Oq tomir mahallasi	Nomsiz	Yuqori bog‘iston	Yuqori bog‘iston —“Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilishi” qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Qabriston	Dasht pandigon mahallasi	Nomsiz	Mamadali Topvoldiyev	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Qabriston	Yoyilma mahallasi	Nomsiz	Yuqori Chumbog‘ish	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Qabriston	To‘xtasin Ahmedov mahallasi	Nomsiz	To‘xtasin ota	To‘xtasin ota —“Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilishi” qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	Qabriston	Qo‘rg‘oncha mahallasi	Nomsiz	Tojali ota	Tojali ota —“Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilishi” qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	Qabriston	Jahonobod	Nomsiz	Quyi Xo‘ja	Qonun hujjatlari

		mahallasi		Abdulloh Ansoriy	talablariga muvofiq.
7.	Qabriston	Suxobod mahallasi	Nomsiz	Suxobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.